



QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH

PhD, dots. Mamatkulov Akram
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0000-0002-0529-5042
mamatkulovakrom629@gmail.com

Annотatsiya. Ushbu maqolada qayta ishlash korxonalarida xarajatlar hisobi va tahlilining dolzarbligi, uning samaradorligini oshirish usullari va zamonaviy moliyaviy boshqaruv tizimlaridagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonidagi xarajatlarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish strategiyalari ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xarajatlar hisobi, qayta ishlash korxonalari, moliyaviy tahlil, samaradorlik, resurslarni boshqarish, xarajatlarni optimallashtirish.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЁТА И АНАЛИЗА ЗАТРАТ НА ПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЯХ

PhD, доц. Маматкулов Акрам
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье рассматриваются актуальность учёта и анализа затрат на перерабатывающих предприятиях, методы повышения его эффективности и значение в современных системах финансового управления. Наряду с этим анализируются стратегии снижения производственных затрат и рационального использования ресурсов в производственном процессе.

Ключевые слова: учёт затрат, перерабатывающие предприятия, финансовый анализ, эффективность, управление ресурсами, оптимизация затрат.

IMPROVEMENT OF COST ACCOUNTING AND ANALYSIS IN PROCESSING ENTERPRISES

PhD, assoc. prof. Mamatkulov Akram
Tashkent State University of Economics

Abstract. This article examines the relevance of cost accounting and analysis in processing enterprises, methods for improving its efficiency, and its importance in modern financial management systems. At the same time, strategies for reducing production costs and ensuring the rational use of resources in the production process are also analyzed.

Keywords: cost accounting, processing enterprises, financial analysis, efficiency, resource management, cost optimization.

Kirish.

Qayta ishlash korxonalari iqtisodiyotning muhim qismini tashkil etadi, chunki ular xomashyo va tayyor mahsulotlar aylanishini ta'minlaydi. Qayta ishlash korxonalari sanoatda mavjud xom ashyolarni tayyor mahsulotga aylantirish bilan shug'ullanadi. Bunday korxonalarda xarajatlarni hisoblash va tahlil qilish samaradorlikni oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga yordam beradi. Bunday korxonalarining samarali ishlashini ta'minlash uchun xarajatlar hisob-kitobi va tahlili muhim ahamiyatga ega. Xarajatlarni bo'yicha hisob-kitoblarni aniq, to'g'ri yuritish hamda tahlil qilish korxonaning rentabelligi, moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga hozirgi kunda, korxonalarda xarajatlar bo'yicha hisob-kitoblari va tahlilini takomillashtirish orqali korxonalar iqtisodiy ravnaqi uchun zaruriy qarorlar hamda muhim vazifalarni belgilab olishda o'z ahamiyatiga egadir.

Adabiyotlar sharhi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda xarajatlar bo'yicha hisob-kitoblarni takomillashtirish masalalariga iqtisodchi olimlarning asarlarida keng e'tibor qaratilgan. Bir qancha ilmiy qarashlar e'tirof etilgan va ular quyidagicha:

Professor Xasanovning (2013) ta'kidlashicha, "Xarajatlar mahsulotlarni ishlab chiqarish, tovarlarni sotish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan sarflarning puldagi ifodasidir".

Iqtisodchi olim Shoalimovning (2016) fikricha, "Mahsulot tannarxi deganda, mahsulot ishlab chiqarish, sotish va korxonada moliyaviy faoliyati bo'yicha barcha xarajatlarining pul orqali ifodalanishi tushuniladi."

Xorijlik olim Polenovning (2008) fikricha, "Ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi xo'jalik yurituvchi subyektlarning ichki ehtiyojlari va tannarxni aniqlash uchun xizmat qiladi".

Iqtisodchi olim Akbashevaning (2020) fikricha, "Xarajatlarni samarali boshqarish uchun ishlab chiqarishni hisobga olish hamda xarajatlar va ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblashning to'g'ri usulini tanlash kerak".

Yuqoridagi olimlarning ilmiy qarashlarida e'tirof etilgan goyalar shyni ko'rsatadiki: Qayta ishlash korxonalarida xarajatlar faoliyatning barcha jarayonlarini qamrab oladi. Xarajatlarni to'liq va aniq tahlil qilish korxonaning rentabelligini oshirish, mablag' oqimini samarali boshqarish va strategik qarorlar qabul qilishda muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Taqqoslash, mantiqiy va abstrakt fikrlash, gipoteza va umumlashtirish usullari qo'llanildi. Qayta ishlash korxonalarida xarajatlar hisobi va tahlili amaliy misollar asosida o'rganilib, ularni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Qayta ishlash korxonalari xom ashyoni tayyor mahsulotga aylantirish bilan shug'ullanganligi sababli boshqa korxonalariga qaraganda xarajatlari turlicha va ko'proqdir. Bunday korxonalarda xarajatlar hisob-kitobi va tahlili muhim ahamiyatga ega. Xarajatlar hisobi – bu korxonada faoliyatiga sarflangan barcha mablag'larni aniqlash jarayonidir. Xarajatlar hisobida xo'jalik jarayonlarni to'g'ri aks ettirish va faoliyatning moliyaviy natijalarni aniq ko'rsatish uchun muhim ahamiyatga ega. Xarajatlar tahlili – bu korxonada xarajatlarini o'rganish orqali, ularni kamaytirish imkoniyatlarini aniqlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish jarayonidir.

Qayta ishlash korxonalari faoliyatining xarajatlari turlari quyidagicha deb olsak:

1.Korxonani tashkil etish xarajatlari:

- 1.1.Binolar va sexlar qurilishi yoki ijarasi;
- 1.2.Uskunalar va texnologik liniyalarni sotib olish;

1.3.Litsenziyalar va sertifikatlar olish;

1.4.Investitsiya va kapital sarflari.

2.Ta'minot xarajatlari:

2.1.Xom ashyo va materiallar sotib olish;

2.2.Transport va logistika xarajatlari;

2.3.Omborlashtirish xarajatlari;

2.4.Ta'minot shartnomalari va import/eksport bo'yicha qo'shimcha xarajatlar.

3.Ishlab chiqarish xarajatlari:

3.1To'g'ridan-to'g'ri xarajatlar: xom ashyo, energiya, mehnat haqi;

3.2.Maxsus xarajatlar: ta'mirlash, texnika xizmat ko'rsatish;

3.4.Doimiy xarajatlar: ijara, ma'muriyat xizmatlari.

4.Sotish va marketing xarajatlari:

4.1.Reklama va marketing;

4.2.Savdo va tarqatish xarajatlari;

4.3.Savdo xodimlari maoshi;

5.Soliq va majburiy to'lovlar:

5.1.Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS);

5.2.Daromad solig'i;

5.3.Ijtimoiy soliq va sug'urta to'lovlari.

6.Kredit va moliyaviy xarajatlar:

6.1.Qisqa-muddatli va uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizlar;

6.2.Valyuta kursining o'zgarishi bilan bog'liq foyda/zarar;

6.3.Mablag'larni investitsiya qilish xarajatlari.

7.Davr xarajatlari:

7.1.Maxsus shartlarga bog'liq xarajatlar, masalan, qayta ta'mirlash, sezonli xarajatlar;

7.2.Qo'shimcha xizmatlar va ijtimoiy choralar.

Masalan, qayta ishlash korxonasi bir oyda 10000 dona mahsulot uchun 1-jadval bo'yicha quyidagicha xarajatlarga ega:

1-jadval

No	Xarajat turlari	Qiymati (ming so'm)	ulushi%
1	Tashkil etish xarajatlari	5 000 000	8,9
2	Ta'minot (xom ashyo va transport)	25 000 000	44,6
3	Ishlab chiqarish (energiya, mehnat va hokazo)	15 000 000	26,8
4	Sotish va marketing	5 000 000	8,9
5	Soliq va majburiy to'lovlar	3 000 000	5,4
6	Kredit va moliyaviy xarajatlar	2 000 000	3,6
7	Davr xarajatlari	1 000 000	1,8
	Jami:	56 000 000	100

Manba: muallif ishlanmasi.

Ushbu 1- jadval ma'lumotlari bo'yicha:

1.Umumiy xarajatlar: $5000000+25000000+15000000+500000+3000000+2000000+1000000=56000000$ so'm.

2.Birlik xarajati: (10 000 dona mahsulot uchun) $56\ 000\ 000/10\ 000=5600$ so'm.

Birlik foyda (agar mahsulot narxi 7 000 so'm bo'lsa): $Foyda=7000-5600=1400$ so'm.

10 000 dona uchun umumiy foyda: $1400 \times 10000=14000000$ so'm.

3.Xarajatlar ulushi esa: tashkil etish xarajatlari 8,9%, ta'minot xarajatlari 44,6% korxonaning eng katta qismi, ishlab chiqarish xarajatlari ham sezilarli darajada 26,8%, sotish va marketing xarajatlari 8,9%, soliq va majburiy to'lovlar xarajatlari 5,4%, kredit va moliyaviy xarajatlar 3,6%, davr xarajatlari 1,8%.

Ishlab chiqarish xarajatlari esa 2-jadval bo'yicha quyidagicha:**2-jadval**

No	Xarajat turlari	Qiymati (ming so'm)	ulushi%
1	Xom ashyo	7 500 000	50
2	Mehnat haqi	3 750 000	25
3	Energiya	1 875 000	12,5
4	Ijara	975 000	6,5
5	Ta'mirlash	900 000	6
	Jami:	15 000 000	100

Manba: muallif ishlanmasi.

Ushbu 2- jadval ma'lumotlari bo'yicha:

1. Umumiy xarajatlar = 20000000 + 10000000 + 5000000 + 3000000 + 2000000 = 40000000 so'm.

2. Birlik xarajat = 15000000 / 10000 = 1500 so'm.

3. Xarajatlar ulushi esa: Xom ashyo xarajatlari 50%, tannarx xarajatlarning asosiy qismini tashkil qiladi. Mehnat haqi xarajatlari 25%, energiya xarajatlari 12,5%, ijara xarajatlari 6,5%, ta'mirlash xarajatlari 6%.

Agar mahsulot narxi 2000 so'm bo'lsa, birlik foyda: Foyda = 2000 - 1500 = 500 so'm. 10000 dona uchun umumiy foyda: 500 * 10000 = 5,000,000 so'm.

Yuqoridagi 1-2 jadval ma'lumotlarida umumiy va tannarx xarajatlari o'rtasida katta farq borligini ko'rish aniq. Lekin bu korxonaning barcha xarajatlarini qoplanishi va shu bilan birga foyda olish masalasi muhim ahamiyatga ega. Shu bois, ushbu masalaga e'tibor qaratamiz. 10000 dona mahsulot uchun umumiy va tannarx xarajatlari ko'rsatkichlarning tahlili bo'yicha farqlarini 3-jadval bo'yicha ko'ramiz va u quyidagicha:

3-jadval

No	Xarajat ko'rsatkichlar:	Narxi	Xarajat	Foyda yoki zarar
1	Umumiy xarajatga	20000000	56000000	-36000000
2	Tannarx xarajatga	20000000	15000000	5000000
	Farqi	-	-41000000	
3	Agar umumiy xarajatga	70000000	56000000	14000000
	Farqi	50000000	41000000	9000000

Manba: muallif ishlanmasi.

Ushbu 3- jadval ma'lumotlari bo'yicha: umumiy xarajat tannarx xarajatga nisbatan ancha ko'p ekanligini ko'rsatmoqda, shu bilan birga uning qoplanishi masalasi e'tiborga olinmoqda. Umumiy xarajatlarni tannarxga nisbatan qo'yilgan narx qiymati bilan qoplanmasligini ko'rsatmoqda. Agar umumiy xarajatga nisbatan belgilangan narx bilan amalga oshirsa, qoplanish masalasi o'rganilgan. Bu esa o'z navbatida xarajatlarni qoplanishi bo'yicha korxonaharbariyatiga qaysi xarajatlarni optimallashtirishni va foyda olish uchun to'g'ri narx belgilash kerakligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari va muallif tomonidan e'tirof etilgan fikrlardan kelib chiqib, ushbu global ahamiyatga ega bo'lgan qayta ishlash korxonalarida harajatlar hisobi va tahlilini takomillashtirish bo'yicha quyidagicha xulosa qilindi:

- qayta ishlash korxonalarini butun faoliyati va mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasidan kelib chiqib "korxonaharbariyatiga tegishli barcha xarajatlarni" - ishlab chiqarish xarajatlar deb

aytadigan bo'lsak, "tannarx xarajatlari" - mahsulot ishlab chiqarish kesimidagi xarajatlarni ifodalaydi; [5]

- xarajatlarning salmog'i ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga, tannarx esa korxonaning daromadiga ta'sir qiladi. Shu sababli ularni ishlab chiqarishda to'g'ri hisobga olish muhim ahamiyatga ega; [6]

- umumiy va tannarx xarajatlar tahlili rahbariyatga strategik qarorlarni aniqlashda yordam beradi.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib, quyidagilar taklif qilinadi:

1.Xarajatlarni nazorat qilish choralari bo'yicha:

- ta'minot xarajatlari korxonaning eng katta ismi (44,6%), shuning uchun xom ashyoning samarali ta'minoti va logistika optimizatsiyasi muhim;

- ishlab chiqarish xarajatlari ham sezilarli darajada (26,8%), energiya va mehnat samaradorligini oshirish lozim;

- soliq va kredit xarajatlari korxonada foydadorligiga ta'sir qiladi, shuning uchun moliyaviy rejalashtirish muhim;

- Mahsulot tannarxining kamayishi va narx raqobatbardoshligining oshishi;

- Resurslardan oqilona foydalanish va ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirish.

2.Xarajatlarni optimizatsiya qilish choralari bo'yicha:

- ta'minot va logistikani qayta ko'rib chiqish;

- ishlab chiqarish jarayonida energiya va yoqilg'i tejamkorligi choralari;

- soliq imtiyozlari va moliyaviy strategiyalardan samarali foydalanish;

- sotish va marketing xarajatlarini optimizatsiya qilish.

3.Xarajatlar hisobi va tahlilini takomillashtirish bo'yicha:

- xarajatlar hisobini yuritayotganda xarajatlarni qoplanishini faqat mahsulot ishlab chiqarish kesimiga qaratish emas balki qayta ishlash korxonalarida umumiy qoplanishini inobatga olib butun ob'ektga e'tibor qaratish joiz;

- costing usulini qo'llash: mahsulotning narxini aniqlashda to'g'ridan-to'g'ri va qo'shimcha xarajatlar hisobga olinadi.

Adabiyotlar/Lumepamypa/References:

Mamatqulov, A.X. (2017) Paxtani qayta ishlash korxonasida ishlab chiqarish hisobini yuritishda xarajatlar hisobini takomillashtirish. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, № 3.

Mamatqulov, A.X. (2024) Paxtani qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarish hisobini takomillashtirish. *PhD dissertatsiyasi, 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit. Toshkent.*

Shoalimov, A.X. va boshqalar (2016) *Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. Toshkent: Lesson-press.*

Xasanov, B. va Xashimov, A. (2013) *Boshqaruv hisobi. Darslik. Toshkent: Cho'lpon, 23-b.*

Акбашева, Д.М. (2020) Особенности учета затрат и калькулирования себестоимости продукции. *Вестник Евразийской науки*, № 6, Том 12. Available at: <https://esj.today>

Поленова, С.П. (2008) *Взаимосвязь производственных затрат в управленческом и финансовом учете. Управленческий учет*, 8(224).